

# O`zbekiston-Qozog`iston: hamkorlikning istiqboli va yangi qirralari

[BoshYangiliklar](#)O`zbekiston-Qozog`iston: hamkorlikning istiqboli va yangi qirralari 27.03.2017



2017 yil 22- 23 mart. Mehr - oqibat, yangilanish, yasharish va do`stlik bayrami bo`lmish Navruz kunlari ikki davlat rahbarlarining - O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog`iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyevning Ostona shahrida bo`lib o`tgan oliy darajadagi uchrashuv va muzokaralarini ekspertlar har tomonlama samarali va aloqalarda yangi sahifani ochdi, deya baholadilar. Ta`kidlash joizki, ikki qardosh halq o`rtasidagi munosabatlar ayyom targ`ib etadigan g`oyalar - o`zaro hamjihatlik, hurmat, ishonch va do`stlik asosida rivojlanib bormoqda.

2 milliard dollar, bu 2016 yil yakunlariga ko`ra mamlakatlarimiz o`rtasidagi o`zaro tovar ayirboshlash hajmi. Uchrashuvda ta`kidlanganidek, bu ko`rsatkich ayni damdagi mavjud salohiyatga mos emas. Shu sabab tomonlar savdo aylanmasini kamida ikki barobarga oshirishdan manfaatdolar. Salohiyat ko`lamini esa O`zbekistonning Milliy sanoat yarmarkasi va har ikki davlat ishbilarmon doiralari qatnashgan biznes forumdan ham anglash mumkin bo`ldi. Unda O`zbekiston va Qozog`istonlik 500dan ziyod tadbirkorlar ishtirok etdilar. Ikki tadbir natijasi o`laroq esa 1 milliard dollarga yaqin savdo shartnomalari va sarmoyaviy kelishuvlar imzolandi.

O`zbek avtomobil sanoati yarmarkaning eng nufuzli qismi bo`ldi, desak yanglishmaymiz. Aynan ushbu soha hamkor davlat tomonida alohida qiziqish uyg`otdi. Aytish joizki, bugungi kunda o`zbek avtomobilsozligi innovatsiyalarni joriy qilish va jadal rivojlanish bo`jicha qariyb 23 yillik tajribaga ega. Tadbirda ham "O`zavtosanoat" AK mutahassislari tarmoqa korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahalliyashtirilgan mahsulotlarning ko`lamini namoyish qilishdi. Ko`rgazmalar zali maydonida "O`zAvtosanoat" AK tomonidan ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobillardan tortib, yuk tashuvchi avtomobillargacha, mahsus texnikalar, TNP, ehtiyot va butlovchi qismlar, shuningdek, turli sport anjomlarini ko`rish mumkin edi.

[Batafsil](#) ma`lumot.

"O`zavtosanoat" AK axborot xizmati

Boshqa yangiliklar ["O`zavtosanoat" AK binosida navbatdagi "Kollegial seminar" o`tkazildi](#)

[2017\\_yilning 18 iyul kuni «O`zavtosanoat» AK binosida «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda xo`jalik boshqaruvi organlarining AKT bo`yicha ixtisoslashgan tarkibiy bo`linmalari rahbarlari uchun mo`ljallangan navbatdagi «Haftalik kollegial seminar» o`tkazildi. Seminarda turli vazirlik va tashkilotlarning AKTga ma`sul bo`linma va xodimlari ishtirok etishdi.](#)



[18.07.2017](#)

[2017\\_yilning 18 iyul kuni «O`zavtosanoat» AK binosida «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda xo`jalik boshqaruvi organlarining AKT bo`yicha ixtisoslashgan tarkibiy bo`linmalari rahbarlari uchun mo`ljallangan navbatdagi «Haftalik kollegial seminar» o`tkazildi. Seminarda turli vazirlik va tashkilotlarning AKTga ma`sul bo`linma va xodimlari ishtirok etishdi.](#)

[O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021 yillarda avtomobil sanoatini boshqarishni takomillashtirish hamda jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi Qarori imzolandi](#)

[O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita boshchiligida tashkil etilgan avtomobilsozlik sanoati o`tgan 23 yillik davr mobaynida mustaqillik yo`lini tanlagan mamlakatimizning rivojlanishi va iqtisodiy yuksalishida mustahkam](#)

[asoslaridan biri sifatida shakllandi.](#)



[05.06.2017](#)

[O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita boshchiligida tashkil etilgan avtomobilsozlik sanoati o`tgan 23 yillik davr mobaynida mustaqillik yo`lini tanlagan mamlakatimizning rivojlanishi va iqtisodiy yuksalishida mustahkam asoslaridan biri sifatida shakllandi.](#)